

**BADIIY ASAR QAHRAMONLARI SAHNADA****Tojikarimova Moxiraxon Anvarjon qizi**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

moxiratojikarimova660@gmail.com

**Abduqaxxorova Gulnozaxon Elyorjon qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy asar hamda ertaklarning sahnalashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Asarni sahnalashtirishda nimalarga ahamiyat berish, boshlang'ich sinflarda teatrlashtirilgan faoliyatning asosiy vazifalari tayyorgarlik jarayonidagi bosqichlari borasida malumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Badiiy asar, sahnalashtirish, ertak, tarbiya, qahramon, dastur, teatr.

**Abstract:** This article talks about the specific features of the artistic work and the staging of fairy tales. Information on what to pay attention to when staging a play, the main tasks of theatrical activity in elementary grades, and the stages of the preparatory process are given.

**Key words:** Art work, staging, fairy tale, education, hero, program, theater.

**Абстрактный:** В данной статье говорится об особенностях художественного творчества и постановки сказок. Даны сведения о том, на что следует обратить внимание при постановке спектакля, основные задачи театральной деятельности в младших классах, этапы подготовительного процесса.

**Ключевые слова:** Художественное произведение, постановка, сказка, воспитание, герой, программа, театр.

**Badiiy asarni sahnalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida muhim o'rin egallagan va bolalarni badiiy-estetik jihatdan samarali tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlardan yana biri badiiy asarlarni sahnalashtirishdir. Boshlang'ich sinflarda sahnalashtirish uchun mashhur ertaklarni tanlab olish juda muhim hisoblanadi. Xalq ertaklari ibratli va sodda tilda yaratilganligi sababli ular o'quvchilarning sahna asarlarini bemalol qo'yishga imkon beradi. Badiiy asarlarni sahnalashtirish – badiiy asar mazmunini dramaturgiya shaklga o'zgartirish bo'lib, unda asar g'oyasi harakatlar, qahramonlar

xarakterining to'qnashuvi orqali ifodalandi.<sup>1</sup> Bu jarayonda asar qahramonlari harakterining to'qnashuvi ularning xulq-atvori, ular o'rtasidagi umumiy suhbatlarda aks etadi.

**ASOSIY QISM:** Badiiy asarlarni sahnalashtirish quyidagi asosiy maqsadlarga erishishga imkon beradi:

1. Ta'limiy maqsad: bolalarni ertaklar bilan tanishtirish, qahramonlar va ularning harakatlarini tahlil qilish, baholashga o'rgatish.
2. Rivojlantiruvchi maqsad: ertaklarni sahnalashtirish orqali bolalarning tasavvuri, diqqati, xotirasi, hissiyoti va nutqini rivojlantirish, ularda muloqot malakalari va jismoniy faollikni tarbiyalash.
3. Tarbiyaviy maqsad: bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda xalq og'zaki ijodi namunasi – ertaklar orqali estetik didni shakllantirish, do'stlik va o'zaro yordam tuyg'ularini tarbiyalash.

Boshlang'ich sinflarda teatrlashtirilgan faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:




<sup>1</sup> Драматизация сказок в детском саду в старшей группе: рекомендации воспитателю // [https://pedsovet.su/dou/6123\\_dramatizatia\\_skazok\\_v\\_starshey\\_gruppe](https://pedsovet.su/dou/6123_dramatizatia_skazok_v_starshey_gruppe).

Bolalarda kattalar bilan hamkorlikda teatr faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish bolalar, otalar, o'qituvchilar, musiqa rahbarining birgalikda sahna asarini qo'yish, ustozlar oldida rollarni taqdim etish, chiqishlarini tashkil qilish va hokazolarda namoyon bo'ladi.

Endi ertaklarga keladigan bo'lsak ertaklarni sahnalastirishda tayyorgarlik jarayonida o'qituvchi yoki musiqa o'qituvchisi o'quvchilarga tanlangan ertakda yoritilgan mavzuni muhokama qiladi, shuningdek, voqea va personajlar bilan tanishtiradi. Sahnalashtirish uchun turli materiallar: xalq va muallif ertaklari, she'riy yoki nasriy asarlardan foydalanish mumkin .

Tayyorgarlik jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:



Teatr pedagogikasi bolalarni tarbiyalashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni o'z ichiga oladi va kattalar bilan ijodiy muloqot jarayonida bolaning subyektiv pozitsiyasini ta'minlashga xizmat qiladigan sharoitni yaratadi. Gumanistik pozitsiya nuqtai nazaridan, barcha bolalar iqtidorli, shu sababli tarbiyachi hamda musiqa rahbarining vazifasi har bir bolaning iste'dodini ochib berish,



unda o'ziga bo'lgan ishonchni qaror toptirish, muvaffaqiyatini his qilish imkoniyatini berishdir. Boshlang'ich yosh davrida bolani kattalarning e'tibori, g'amxo'rliqi, mehri bilan o'rab olish juda muhimdir. Mehr-muhabbat bo'lgan muhitda ulg'aygan bolalarda hissiy kechinmalar uyg'onadi. Ular dunyoga ishonch, atrofdagilarga mehr bilan munosabatda bo'lish zarurligini anglab etadi. Teatr bolalar uchun eng ta'sirchan san'at turlaridan biri. Obrazga kirgan bola turli rollarni o'ynaydi, ko'rgan va uni qiziqtirgan narsaga taqlid qilishga harakat qiladi va bundan hissiy zavq oladi. Tomoshabinlar oldida sahnada tez-tez sodir bo'ladigan chiqishlar bolaning ijodiy kuchi va ma'naviy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishga, erkin bo'lish va o'z-o'zini hurmat qilishga o'rgatadi. Ijrochi va tomoshabin funksiyalarining almashinishi bolaga o'rtoqlariga o'z pozitsiyasini, mahoratini, bilimini, tasavvurini namoyish etishga yordam beradi.

Teatrlashtirilgan o'yin va tomoshalar bolalarda qiziqish va osonlik bilan tassavurga berilishini ta'minlaydi. Ularni o'zining va boshqalarning xatolarini payqash, baholashga o'rgatadi. Bolalarda mustaqil fikr shakllanadi. Ularni omma oldida ifodalashni, borliqni yanada yorqinroq his qilishni o'rganadi.

Boshlang'ich sinflarda ertaklarni sahnalashtirish dastur asosida amalga oshiriladi. Dastur to'rt o'quv yiliga mo'ljallanadi. Dasturni amalga oshirish jarayonida bolalar bilan ishlashda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ertaklarni o'qish va birgalikda tahlil qilish;
- adabiy til me'yorlarini o'rganish;
- so'zlar bilan barmoq o'yinlarini o'ynash;
- nafas olish mashqlarini bajarish;
- ertaklardan parcha ijro etish;
- kompyuterdan foydalangan holda ertaklar, bolalar qofiyalari, she'rlar tinglash;
- rejissyor spektakli (qurilish va didaktik material bilan);
- ertaklardagi eng yorqin va hissiyotli voqealarni nutqiy sharhlash va tasvirlangan voqealarning shaxsiy ma'nosini tushuntirish bilan chizish va bo'yash;
- pantomimik tadqiqotlar va mashqlar;
- artikulyar gimnastikani bajarish;
- so'z, stol va ochiq o'yinlar;

Boshlang'ich sinflarda ertaklarni sahnalashtirishda bolalar bilan ishlash bir qator shartlarga asoslanadi. Ular quyidagilardir:

- bolalarning o'z istaklarini inobatga olgan holda rolga tanlashni amalga oshirish;
- barcha bolalarni o'rganilayotgan san'at asarini sahnalashtirishga undash;
- har bir bola qanday rollarni o'ynaganligini, uning asosiy yutuqlari nimada ekanligini kuzatib borish;
- bolalar tomonidan ertakning mazmunini idrok qilish va uni yodda saqlab qolinishiga erishish.

Ertaklarni sahnalashtirishda bolalar quyidagi ko'nikma va malakalarni o'zlashtira olishlari zarur:

- sahnaga qo'yish uchun ertak, she'r, qo'shiqni tanlashda o'z fikrini bildirish;
- o'zida zo'riqishni yenga olish;
- har qanday qahramonning rolini yodlay olish, uning xarakterini aytib bera bilish;
- tilning bir maromda tebranishini, iboralarni turli tezlikda talaffuz qilish;
- ertaklar asosida eskizlar chizish;
- eng oddiy dialogni shakllantirish;
- rolni ijro qilishga mas'uliyat bilan yondashish;
- sahna asarining hissiy vositalari (turish, imo-ishoralar, mimika, ovoz, harakatlar)ni o'z faoliyatida qo'llash;

Ertaklarni sahnalashtirish orqali bolalarda o'ziga ishonch hamda jamoada o'ynash qobiliyati shakllanadi.

#### **XULOSA:**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki boshlang'ich sinflarning faoliyatida badiiy asarlar, ertaklarni sahnalashtirish, ya'ni, teatr faoliyati ham muhim o'rin tutadi. Ertaklarni sahnalashtirish bolalarni teatr madaniyati qoidalari bilan tanishtiribgina qolmay, bolalarda badiiy-estetik did, idrok, qobiliyatni rivojlantiradi. Ularning hissiyotini tarbiyalaydi. Hissiy kechinmalarga ega bo'lgan bolalarda borliqqa, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi, nutq rivojlanadi, tengdoshlar bilan muloqot qilishni o'rgatadi. Qolaversa, ertaklarning sahnalashtirilishi bolalarda badiiy asarlarni o'qitishga bo'lgan qiziqishni rivojlantiradi. Shu sababli boshlang'ich sinf





o'quvchilari uchun sevimli bo'lgan ertaklarni sahnalashtirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bu boradagi faoliyatning dastur asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi esa boshlang'ich sinflarda teatr faoliyatini tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilinishini ta'minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang'ich sinflarga ta'lim berish jarayonida zamonaviy metod va vositalarning ahamiyati. Qo 'qon universiteti xabarnomasi, 581-583.
2. Ikromjonovna, J. S. (2023). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida joriy etilgan yangi darsliklarning afzallik jihatlari. Qo 'qon universiteti xabarnomasi, 661-663.
3. BADIY O'QISH VA DRAMA FANI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 49-53.  
<https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/59>
4. Tojkarimova, M. A. qizi. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Educational Research in Universal Sciences, 2(16),824-828.Retrievedfrom <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5106>
5. Jumanova, S. B. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchisining ona tili va o'qish savodxonligi darslari orqali milliy qadriyatlarimizni o'rganishning samarali omillari. Results of National Scientific Research International Journal, 1(9), 311-321.
6. Jumanova, S. I., & Asqarova, D. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI O 'STIRISHDA STEM TA'LIMINING O 'RNI. Educational Research in Universal Sciences, 2(15), 377-381.
7. Jumanova, S. (2022). USMON AZIM SHE'RIYATIDA KUZ MOTIVI. Scientific journal of the Fergana State University, (2), 29-29.
8. Maxliyoxon, O., & Sohibaxon, V. (2024). BADIY O 'QISHNING BOLALARNING FIKRLASHIGA TA'SIRI. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 10-14
9. Maxliyoxon, O., & Layloxon, M. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA TEATR-SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING SHAKLLARI. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 15-20.



10. Maxliyoxon, O., & Nilufar, Y. L. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIM SINFLARIDA YOD O 'QISH VA BADIY O 'QISHNING MUHIMLIGI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 46-51.
11. Maxliyoxon, O., & Sarvinoz, M. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIM O 'QUVCHILARINI OMAVIY TADBIRLARGA TAYYORLASH USULLARI. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 41-44.
12. Axadjon o'g'li, A. A., & Murotovich, M. F. (2023). RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA RAQAMLI IQTISODIYOT SIYOSATI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 294-298.
13. GM Abdullaev Akhrorjon. (2023). O'zbekistonda islom moliyasini joriy etishdagi imkoniyat va istiqbollari. ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 1 ...
14. HA Abdullaev Akhrorjon. (2023). Islom moliyasidan keng foydalanish asoslari. ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 1 ...
15. UI Abdullaev Akhrorjon, Akhmadjonov O. (2023). Islom moliyasida shartnoma turlari. ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI